

## AHMAD SHAVQIY SHE'RIYATIGA BIR NAZAR

Xaitova Barno Mirsobitovna

Yangi asr universiteti arab tili fakulteti 4-bosqich talabasi

Email: [khayitovabarni@gmail.com](mailto:khayitovabarni@gmail.com)

Tel: +998 97 718 49 11

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk Misr shoiri Ahmad Shavqiyning hayot yo'li, undagi muhim shaxslar va voqealar haqida bo'lib, ishimiz davomida iste'dodli ijodkorning sof tabiat lirikasiga bag'ishlangan "Mag'rur qadam otsang safarda" she'ri yuzasidan ilmiy va shaxsiy yondashuvlar taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar va iboralar.** Ahmad Shavqiy, Misr, Fransiya, Xediv Tavfiq, Mag'rur qadam otsang safarda...

**Аннотация:** В данной статье рассматривается жизненный путь великого египетского поэта Ахмада Шавки, важные личности и события, сыгравшие роль в его судьбе. В ходе исследования представлены научные и личные подходы к анализу стихотворения талантливого автора, посвящённого чистой природной лирике, — «С гордой поступью в пути».

**Ключевые слова и выражения:** Ахмад Шавки, Египет, Франция, Хедив Тауфик, «С гордой поступью в пути».

**Abstract:** This article explores the life journey of the great Egyptian poet Ahmad Shawqi, focusing on the significant figures and events that shaped his path. Throughout the study, both scholarly and personal approaches are presented to analyze the talented poet's nature-inspired lyrical work, "Walk Proudly on Your Journey."

**Keywords and phrases:** Ahmad Shawqi, Egypt, France, Khedive Tawfiq, *Walk Proudly on Your Journey*.

**Kirish.**  
o'likdir.

Umrlar bo'ladiki, tirigida

O‘limlar bo‘ladiki, o‘lsa hamki, tirikdir<sup>1</sup>.

Maqsud Shayxzoda.

Bu ko‘hna zamin vakillariga razm solsak, ko‘plab buyuk ijodkorlar yashab o‘tganiga guvoh bo‘lamiz. Ular o‘zlarining yaratgan qimmatli ijod namunalari bilan o‘zlarini abadiyatga muhrlagan zotlardir. Ana shunday, o‘z nomini abadiyatga muhirlagan buyuk iste’dod vakili Ahmad Shavqiydir.

1868-yil 16- oktabrda Qohirada tavallud topgan Ahmad Shavqiy (أحمد شوقي).

Arab adabiyotida “Amir ash-shuaro” (“shoirilar amiri”) bilan nom chiqargan iste’dodli ijodkordir.

Adibning kelib chiqishi haqida turli manbalarda, turlicha ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ularning birida, otasi cherkis va onasi yunon- turk deyilsa, boshqasida esa, otasi kurd, onasi asli turk bo‘lgan deb ketiriladi. Shuningdek, otasi tomondan buvisi yunon ekanligi aytiladi. “Uning buvisi Xediv Ismoil saroyida xizmatkor bo‘lib ishlagan va u nabirasi Ahmadning tarbiyasini o‘z zimmasiga olgan u saroyda buvisining oldida o‘sdi. U to‘rt yoshida Shayx Solih kitobiga qo‘shiladi, shuning uchun u Qur’ondan biroz yod oldi va o‘qish va yozish tamoyillarini o‘rgandi, keyinchalik Al-Mubtadiyon boshlang‘ich maktabiga o‘qishga kirdi va u yerda aniq daholik ko‘rsatdi va mukofotlandi<sup>2</sup>”. Iste’dodli Ahmad ushbu voqeadan keyin maktab to‘lovlaridan ozod qilinadi. O‘n besh yoshida bo‘lajak shoir huquq maktabiga o‘qishga kiradi va u yerda yangi tashkil etilgan tarjima bo‘limiga a’zo bo‘ladi. Ushbu a’zolik Ahmad Shavqining chinakam iste’dod egasi ekanligini ko‘tsatdi. Shoirning ilk she’rlari aynan mana shu dargohda dunyoga keldi.

Shu davrgacha bo‘lgan barcha voqealar ijodkor hayotidagi muhim ishlar uchun, dastak vazifasini o‘tadi va barchasi adibning kiyingi faoliyatida o‘z aksini qoldirdi.

Misol tariqasida aytish mumkinki, “U Xediv Tavfiq hisobidan Fransiyaga sayohat qiladi va o‘sha birinchi o‘quv safari Shavqiyning intellektual va ijodiy boshlang‘ich

<sup>1</sup> Shayxzoda M Tanlangan asarlar 3 jildlik.

<sup>2</sup> <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/arab-sheriyati/ahmad-shavqiy-1868-1932/attachment/ahmad-shavqiy/?lng=lat>

nuqtalarini hal qildi<sup>3</sup>”. Ushbu sayohatdagi do‘stlari bilan shoir o‘rtasida yaqinlik yanada mustahkamlanib, keyinchalik ular bilan birgalikda (Misr taraqqiyot uyushmasi) ni tashkil etishda ishtirok etdi. Sayohat adibga nafaqat hur fikrlik va ajoyib do‘stlar taqdim etdi, balki, shoir sifatida shakllanishida ham muhim maktab vazifasini o‘tadi. Xususan, firansuz shoirlari Rasin va Molyerlarning ijodi Shavqiyga juda katta ta’sir ko‘rsatdi.

**Natijalar.** Ahmad Savqiy Misr she’riyati osmonida go‘yo bir yorqin yulduz kabi potlari, u o‘z ijodida turli mavzularda she’rlar yozib, o‘z muxlislari qalbiga ezgulik urug‘larini qadadi. Quyida shoirning “Mag‘rur qadam otsang safarda” deb nomlangan she’ri ustida fikr yuritamiz.

Ko‘chamizdan sen mag‘rurona  
Odim tashlab o‘tsang – tabiat  
Havas qilar sening ko‘rkingga,  
Kun egningga qarab rashk qilar,  
Chunki to‘sar uning nurini.

Sof tabiat lirikasiga bag‘ishlangan ushbu she’rda, ijodkor tomonidan, tabiatning bir qadar o‘jarligi, shiddati e’tirof etilib, o‘z vaqtida navbat almashadigan fasllardan bir bahor tashrifiga nisbatan, odim qadam tashlamoq iborasini ishlatmoqda. Satrlar ketma - ketligida, tabiatdagi yasharish va yangilanish hatto quyoshning ham nurlarini to‘sar darajada, go‘zal ekanligi aytilmoqda.

Ko‘chamizdan sen mag‘rurona  
Odim tashlab o‘tsang – havasdan  
Yonar hamma chiroyli qizlar,  
Ko‘rib sening xushbichim gavdang,  
Kulganingda, barroq tishlaring  
Yonsa kunda durday yarqirab.

<sup>3</sup> <https://share.google/Dw3EuXzipQiTzLi4W>

Ikkinchi kupletda, shoir bahorning barcha narsaga bir xil saxovatda gul to‘shab, olamni go‘zallikka burkash, bu go‘zallik hatto eng go‘zal qizlarda ham hasad emas balki havas uyg‘otmog‘i, nazarda tutilgan.

Ko‘zlarini, yuzingni ko‘rib  
To‘lqinlanib har kim deydiki:  
“Ko‘z o‘ngimda yilt etdi malak...”  
Yo‘q yanglishdi! Ol yonoqlari  
Jahannam o‘tidan yuz bora xavfli.

Ijodkor ushbu she‘rda bir qancha badiiy san‘atlardan unumli foydalangan. Jumladan, Tashbeh va Tashxis san‘atlari she‘r baytlarini go‘zal qofiyalanishiga sabab bo‘lgan.

Tashbeh bu o‘xshatish san‘ati bo‘lib, “Tashbeh san‘ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollarini ma‘naviy qiyofasini yorqinroq ochib, binobarin, shoir g‘oyasini o‘quvchi ongiga to‘laroq yetkazishga imkon beradi<sup>4</sup>”. Darhaqiqat ikki tushuncha o‘xshatilmish va o‘xshamish nafaqat she‘r jozibasini oshiradi balki, o‘quvchiga ham estetik zavq beradi.

Tashxis atamasi ko‘plab sohalarda faol qo‘llaniladigan termin bo‘lib, uning she‘rdagi vazifasi tibbiyotdagi kabi jonlantirishdir. Tabiatga inson xati harakatlarini ya‘ni, **“Ko‘chamizdan sen mag‘rurona**

**Odim tashlab o‘tsang”** insonga xos faoliyat bo‘lib, she‘r tarkibida kelish jonlanmog‘idir. “Bunday tasvir tasodifiy bo‘lmay, tasvir obyekt bo‘lmish hayvon, o‘simlik yoki ashyoning biror belgisi bilan inson xususiyati yoxud fe‘l – atvori o‘rtasidagi qandaydir ramziy o‘xshashlikka asoslanadi<sup>5</sup>”. Ta‘kidlash joizki, ijodkor ushbu she‘rda ikkala san‘atni uyg‘unlikda ya‘ni, o‘xshatilmishni jonlantirib, she‘rda bir butun kompozitsiya yaratgan.

<sup>4</sup> Hojiahmedov A. She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya. T.: Sharq. -1998. B-14

<sup>5</sup> Ishoqov Y. So‘z san‘ati so‘zligi. T.: Zarqalam. 2006. B -92

**Xulosa** qiladigan bo'lsak, buyuk ijodkor, haqiqiy iste'dod egasi ekanligini, ilm olish va uni yaxshi amallarda ishlatmoqlik fazilat ekanligini nafaqat ijodida balki, sermazmun umri davomida ham isbotlagan desak xato bo'lmaydi. Yoshligidan o'z e'tiborini ilm olishga qaratgan Ahmad Shavqiy yaratgan buyuk va boy merosi bilan o'zini adabiyotga manguga muhrlagan.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Shayxzoda M Tanlangan asarlar 3 jildlik.
2. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. T.: Sharq. -1998.
3. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. T.: Sharq. -1998. B-14
4. <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/arab-sheriyati/ahmad-shavqiy-1868-1932/attachment/ahmad-shavqiy/?lng=lat>
5. <https://share.google/Dw3EuXzipQiTzLi4W>